

“ME’YOR UL-ASH’OR” VA “MEZON UL-AVZON” RISOLALARIDAGI JUZVLAR QIYOSI

Satiyeva Mavluda Raximjon qizi

Toshdo‘tau Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi magistri

Annotatsiya. *Ushbu maqolada fors olimi Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” hamda Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” risolalari qiyosiy tahlilga tortilgan. Tusiy hamda Navoiy fors va turkiy aruz nazariyasini yaratishda qanday usullardan borishgani qiyoslangan. Risolalarda aruzga oid ritmik birliklardan biri – juzvlar qay tarzda berilgani qiyoslangan. Natijada, Tusiy ham, Navoiy ham 6 ta juzvni ta’riflab ko’rsatgani, ammo Tusiy fosila juzvi haqida boshqacha fikrlarda ekanligi ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *aruz, forsiy aruz, turkiy aruz, juzv, Tusiy, Navoiy, sabab, vatad, fosila.*

Abstract. *This article is devoted to the comparative analysis of treatises as “Mi’yar al-ash’or” by Persian scholar Nasiruddin Tusi and “Mizan al-Avzon” by Alisher Navoi. The methods used by Tusi and Navoi in creating the Persian and Turkish Aruz theory are compared. In the treatises, one of the rhythmic units related to aruz - juzv - is compared. As a result, it was revealed that Tusi’s treatise described the juzv fasilaa differently than Navai.*

Keywords: *aruz (prosody), juzv. Sabab, watad, fasila, persian aruz, turkish aruz, Tusi, Navai.*

Mumtoz aruzshunoslikda nazariy bilimlarni tushuntirish maqsadida juzv tushunchasidan foydalanilgan. Juzv arab tilida “qism”, “bo‘lak”, “parcha” ma’nolarini bildiradigan aruzga oid eng kichik unsur bo‘lib, arab alifbosidagi harakatli va sokin harflarning turli tartibda birikishi yordamida hosil qilinadi. Juzvlarning vazifasi undan kattaroq birlik bo‘lmish ruknlarning xususiyatini belgilashdir. Aruzshunos U. To‘ychiyev aruzning asl kichik elementi harf va harakat bo‘lgani sababli aruz haqidagi o‘rta asrlardagi ta’limotlar harfiy nazariya bo‘lib qolganini aytadi. Bunga misol tariqasida esa Boburning rukn haqidagi “Hech rukn *bash harftin* kamroq va *yetti harftin* ko‘proq kelmaydir” so‘zlarini keltiradi (Тўйчиев, 1985, 216-бет).

Aruz ilmiga oid manbalarda juzvlarni nomlash borasida ayrim farqlar ham mavjud. Jumladan, mazkur tushuncha Qays Roziyning “Al-Mo‘jam”, Nasiruddin Tusiyning “Me’yor ul-ash’or” hamda Boburning “Muxtasar” (“Aruz risolasi”)ida “juzv”, Ahmad Taroziyning “Funun ul-balag‘a”sida “asl”, Jomiyning “Risolai aruz”,



Navoiyning “Mezon ul-avzon”, Husayniyning “Badoyi’ us-sanoyi” va “Aruzi Sayfiy”da “rukn” tarzida keltirilgan.

Aruzshunoslikda juzvlarning an’anaviy uch guruhi — sabab, vatad va fosila mavjud, ularning har biri esa o’z navbatida yana ikki guruhga bo’linadi.

Aruzga oid asarlarning deyarli barchasida juzvlar ta’rifi birinchi keltiriladi. Qiyoslanayotgan risolalarda ham shu holatni kuzatamiz.

Nasiruddin Tusiy boshqa aruzshunoslar singari aruz birliklarini tadqiq qilishda dastlabki e’tiborni juzvlarga qaratadi. Muhim jihati shundaki, Tusiy mumtoz aruzshunoslikda bo’lgani kabi ularni rukn/arkon tarzida emas, balki Xalil ibn Ahmadga ergashgan tarzda juzv/ajzo shaklida beradi. Uning fikricha juzvlar mutaharrik va sokin harflarning qo’shilishidan yuzaga keladi, bunda arab va fors tillari qoidasiga ko’ra juzvning ilk harfi albatta mutaharrik bo’lishini qayd etadi.

Alisher Navoiy “Mezon ul-avzon”da juzv tushunchasini “rukn” istilohi ostida ta’riflaydi: “...aruz fani ahli nazm avzoni usulining binosin uch rukng’a qo’yubdurlarkim, alarni sabab va vatad va fosila debdurlar” (Навоий, 2000, 41-бет). So’ngra Navoiy ushbu juzvlarning barchasiga an’anaviy ta’rif berishni boshlaydi.

Tusiy juzvlar tavsifini sababdan boshlaydi: “Ta’lif az du huruf buvad va on muallafro sabab xonand va lomahola avval mutaharrik boyad. Pas agar hurufi duyum sokin buvad, onro sababi xafif xonand va musovii maqta’i mamdud boshad va agar mutaharrik buvad, onro sababi saqil xonand” (Тўсий, 1992, С. 24).

Tusiyning fikricha, sababi saqiyl ikki mutaharrik harfdan tashkil topgani hamda o’zidan keyin boshqa juzv bilan birikishi kerakligi bois fors aruzida qo’llanilmaydi. Bu haqda u shunday deydi: “Va dar agar asli she’ri forsi sababi saqil musta’mal nest az jihati on ki sababi saqil chun ba juzvi digar payvandad va se mutaharrik yo ziyodat mutavoli shavand va vuqu’i on dar she’ri forsi chunonki guftem, az e’tidol xorich ast” (Тўсий, 1992, С. 24). Sababi saqiylga qo’shilishi kerak bo’lgan juzv ham mutaharrik bo’lishi kerakligi sababli, uchta mutaharrik harfning ketma-ket kelishi fors tilining fonetik tabiatiga zid holat sanaladi. Shu tufayli, Tusiy forsiy juzvlar tarkibidan sababi saqiylni chiqarib yuboradi, shuningdek, tarkibida sababi saqiyl mavjud ruknlar (afoyillar)ni ham fors aruziga yot deb sanaydi.

Navoiy sabab juzvi haqida shunday fikrlarni qayd etadi: “Sabab ikki nav’dur: sababi xafif va ul lafzedur mushtamil bir mutaharrik va bir soking’a, andoqkim, may (می) va nay (نی) va gul (گل) va mul (مل). Va sababi saqiyl va ul lafzedur mushtamil ikki mutaharrikka, andoqkim, yuzi (وزی) va ko’zi (کوزی) va xati (خطی) va qadi (قدی)” (Навоий, 2000, 41-бет).

Tusiy vatad juzvi haqida shunday deydi: “Va ta’lifi duyum az se harf buvad va onro vatad xonand va har se mutaharrik nashoyad, chunonki gufta omad va harfi



avval lomahola mutaharrik boshad. Pas agar duyum sokin buvad, seyum mutaharrik boyad, chi du sokin nashoyad, ki dar asnoi suxan jam shaved va on muallaфро vatadi mafruq xonand. Va agar duyum ham mutaharrik buvad va seyum sokin, onro vatad majmu' xonand" (Тўсий, 1992, С. 24).

Alisher Navoiy "Mezon ul-avzon"da vatad juzvi haqida quyidagicha fikr bildiradi; "Va vatad dag'i ikki qismdur: va vatadi majmu' va ul lafzedur: ikki burunqi harfi mutaharrik va bir so'ngqi harfi sokin, andoqkim, shajar va samar va Xo'tan va Adan. Va vatadi mafruq va ul lafzedur: burunqi va so'ngqi harfi mutaharrik va o'rtanchi harfi sokin, andoqkim, xoma va noma va noqa va foqa" (Навоий, 2000, 41-бет).

Tusiynung fosila juzvi haqidagi qarashlari ham qiziq:

"Arab aruzida uch mutaharrik va bir sokin harfdan iborat juzv fosilayi sug'ro deb nomlanadi. Masalan, fa'ilun. Bu juzv ikki sabab: birinchi, sababi saqiyl va ikkinchi, sababi xafifdan tashkil topgan. To'rt mutaharrik va bir sokin harflardan iborat juzv esa fosilayi kubro deyiladi. Masalan, fa'alatun. Bu juzv sababi saqiyl hamda vatadi majmu'dan tashkil topadi" ("Va dar aro'zi tozi (ya'ni arab) muallafero, ki az chahor harf buvad: se mutaharrik va chahorum sokin, fosilayi sug'ro xonand, misolash fa'ilun va on murakkab azz du sabab buvad: avval saqil va duyum xafif. Va muallafero, ki az panj harf buvad: chahor mutaharrik va panjum sokin – fosilayi kubro xonand, misolash fa'ilatun va on muallaf az sababe saqil va vatadi majmu' buvad va har du az ta'lifoti boshad" (Тўсий, 1992, С. 24)).

Shu o'rinda Nasiruddin Tusi arab aruzida har olti juzvni o'z holicha qayd etib, sababi saqil, vatadi mafruq hamda fosilayi kubrolarni fors aruzidan chiqarib tashlashini kuzatamiz. So'ng, Tusi juzvlarning har biriga ham arab, ham fors she'riyatidan xos misollar keltirib o'tadi.

Alisher Navoiy fosilai sug'roning "uch harfi mutaharrik va to'rtunchi harfi sokin" ekanligini aytib, "mirakim" (ميرك يم) va "yurakim" (يورك يم)ni misol qilib ko'rsatadilar. Fosilai kubroning esa oldingi to'rt harfi harakatli va beshinchi harfi sokin ekanligi va bunga "yashamag'an" (ي شمعن) va "kasamag'an" (ك سميعن) so'zlari misol bo'lishini ta'kidlaydi: "Fosila dag'i ikki nav'dur: fosilai sug'ro va ul lafzedur: uch harfi mutaharrik va to'rtunchi harfi sokin, andoqkim, mirakim va yurakim. Va fosilai kubro va ul lafzedur: to'rt harfi mutaharrik va beshinchi harfi sokindur, andoqkim, yashamag'an va kismag'an" (Навоий, 2000, 41-бет).

Navoiy juzvlarning barchasi ishtirokida tuzilgan misrani umumiy misol qilib keltiradi: "Va arkonning majmui bu kalimot tarkibida darajadurkim:

"Ul ko'zi qaro dardu g'amidin chidamadim" (Навоий, 2000, 41-бет).

Bundan tashqari Navoiy har bir juzvga misol tariqasida bittadan bayt keltirib



o'tadi: "Ne sababdin, andoqkim,

B a y t:

Ey oy, kelkim, yoringdurmen,

Furqat shomi zoringdurmen.

Va ne avtoddin, andoqkim,

B a y t:

Qadi havosidin gahi shajar sari nazar qilay,

Yuzi xayolidin gahi chaman sari guzar qilay.

Va ne favosildin, andoqkim,

B a y t:

Mirakim, tilakim chu sen o'ldungu bas,

Ne qilay yanalar ko'rarni havas (Навоий, 2000, 41-бет).

Har ikki risolada berilgan juzvlarga oid misollarni quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin:

Juzvlar	"Me'yor ul-ash'or"	"Mezon ul-avzon"
Sababi xafif	Bar	May, nay, gul, mul
Sababi saqil	Sari	Yuzi, ko'zi, xati, qadi
Vatadi majmu'	Mani	Shajar, samar, Xo'tan, Adan
Vatadi mafruq	Ahdi	Xoma, noma, noqa, foqa
Fosilayi sug'ro	Fa'ilun	Mirakim, yurakim
Fosilayi kubro	Fa'ilatun	Yashamag'an, kasamag'an

Juzv va ruknlarning har ikki risolada berilishini o'rganib chiqqach, Tusiy bu borada ancha kengroq ma'lumot berganiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, "Me'yor ul-ash'or"da ruknlar xumosiy va suboiy ruknlarga tasnif qilinsa, Navoiy risolasida bu holat kuzatilmaydi. Ammo, aruzshunoslikda "afoiy" atamasi xumosiy ruknlarga, "tafoiy" atamasi suboiy ruknlarga ishora qilishini hisobga olsak, Navoiy ham ularni guruhlagan deb hisoblasak bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Мезон ул-авзон. МАТ. 20 томлик. – Тошкент: Фан, 2000. 41-бет.
2. Насируддини Тўсий. Меъёр-ул-ашъор / Ҳозиркунандаҳои чоп У.Тоиров, М.Абдуллоев, Р.Чалол. – Душанбе: Ориёно, 1992. – С.24.
3. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. - Тошкент: Фан, 1985.
4. Akram Ja'far. *Eruzun Nezeri Esaslari* ve Azerbaycan Eruzu, Bakı, 1977.
5. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. T: Ta'lim-media, 2019.

